

**“MEHNAT FRONTINING QAHRAMONLARI:O`ZBEKISTON
URUSH YILLARIDA”**

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

U.Mirzaliyev

Guliston Davlat Pedagogika instituti, Gumanitar fanlar va jismoniy
madaniyat fakulteti, tarix yo`nalishi 1-kurs talabasi.

Jumayeva Farida Ro`ziboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinch jahon urushi vaqtida O`zbekistonda qishloq xo`jaligida olib borilgan tadbirlar va ularning natijalari , aholining front uchun o`z hissasini qo`shgani yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Ikkinchi jahon urushi, qishloq xo`jaligi , kartochka tizimi , Usmon Yusupov , frontchasiga ishlash , Shavkat Mirziyoyev , irrigatsiya inshootlari , Islom Karimov .

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng daxshatli urushlardan biri bo`lib, 1939-1945-yillarda bo`lib o`tgan. Bu urush butun dunyo xalqlariga katta ta`sir ko`rsatgan. Urush boshlanishi bilan juda ko`p davlatlarni o`z girdobiga tortib ketdi. Urush natijasida Sovet Ittifoqi tarkibida bo`lgan O`zbekiston ham chetda qolmadi. Uurush O`zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga ta`sir ko`rsatdi. O`zbekiston frontni zarur qurol-yarog` o`q-dori, oziq-oqvat va kiyim-kechak bilan ta`minlab turdi. Urushda O`zbekistondan taxminan 1 mln 500 mingdan ortiq kishi qatnashdi. Erkaklar urushga safarbar etilgani uchun qishloq xo`jaligida ishchi kuchi yetishmay qoldi. Ularning o`rnini keksalar, ayollar va bolalar egalladi. (5-s 144-b) Qishloq xo`jaligining barcha bo`g`inlarida qat`iy ish tartibi o`rnatildi. Eng kam miqdordagi mehnat kunlari 1,5 barobarga oshirildi, bolalar uchun 12 yoshdan mehnat kunlari belgilandi. Belgilangan miqdordagi mehnat kunlarini bajarish majburiy qilib qo`yildi. (153-b)

Xalq kuchini birlashtirishda o`sha vaqtda respublikaga rahbarlik qilgan

Usmon Yusupovning xizmati katta bo'ldi. Shuning uchun ham uni “mamlakat ichkarisidagi marshal” deb atashar edi. Urushning dastlabki vaqtida jamoalarda zarbdorlar harakati rivojlandi. Ikki barobar normani bajarib kelayotgan ishchilarga uch va undan ortiq norma qo'yildi. Kunlik rejalar 350-470 foizgacha yetkazib bajarildi. “Frontchasiga ishlash” ortidagi millionlab vatandoshlarimizning mehnati dushmanni tor-mor keltirib g'alaba qozonish uchun zarur qurol va mahsulotlar bilan ta'minlash jihatidan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. (10-s 2022 149-b)

O'zbekistonda 20 mingga yaqin toshkentlik xotin-qizlar sano`at korxonalari va qurilishlarida, 1700 ga yaqini Respublika xotin qizlari ko`mir koni shaxtalarida ishlashga yo`l oldi. 1941-yiln iyul oyida “Tashselmash” zavodida 220 nafar xotin-qizlar frontga ketgan otalari, akalari va erlarining o`rniga ishga kirib fidokorona mehnat qildi. O'zbekiston sanoatchilari 1941-yil oxirigacha 300 ga yaqin korxonani jangovor texnika, qurollar va o`q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurdilar. (10-s 2017 138-b)

Urush bo`layotganva dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz, sovxoz va MTSlarning mulklarini, madaniy boyliklar va o`quv maskanlarini Sharqqa, jumladan O'zbekistonga zudlik bilan ko`cherish boshlandi. O'zbekistonga 100 ga yaqin sanoat korxonasi, 48 ta mashinasozlik, metal ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob-uskunolari ko`chirib keltirildi. O'zbekiston shaharlarida shoshilinch bo`shatib berilgan yoki yangidan qurilgan binolarga ko`chirib keltirilgan asbob-uskunalar zudlik bilan joylashtirildi va montaj qilindi. Ular ishchi kuchi, xomashyo, instrumentlar bilan ta'minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo`lga qo'yildi. (10-s 2017 139-b)

Aholi orasida pul mablag`lari yig`ilib mamlakat mudofaa jamg`armasiga topshirildi. Urush natijasida xalq juda qiynalib qoldi. Shaharlarda kartochka tizimi joriy etildi. Ishchi va xizmatchilar kuniga 400-500 gr dan, ularning qaramog`idagi kishilar 300-400 grdan non olar edilar. (242-b)

“Mamlakat ichkarisida urush yillarida mehnat qilgan yuz minglab vatandoshlarimiz chekkan zahmatlarni, keksa-yu yosh akalarimiz, opa-singillarimiz qish qahratonida o`zi yemasdan, o`zi

kiymasdan topgan nasibasini frontga jo`natganini, azob-uqubatlar chekib, fidoyilik ko`rsatganini esdan chiqarib bo`ladimi?” deydi Prezidentimiz Islom Karimov. Urush yillarida paxraga ajratilgan yerlar maydoni qisqartirilib ularning o`rniga g`alla, sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirish yo`lga qo`yiladi. Xo`jalik mahsulotlarinin yetishtirish uchun 10 ta yirik va bir qator kichik irrigatsiya inshootlari foydalanishga topshirildi. (10-s 2022 153-b) 1942-yil fevra-mart oylarida barpo etilgan Shimoliy Toshkent kanali 15 mingg gektar yerni sug`orish imkonini berdi. Kattaqo`rg`on, Kosonsoy, Rudasoy suv omborlari, Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg`ona, So`x-Shohimardon, Uchqo`rg`on kanallari qurildi. Natijada respublikaning sug`oriladigan yer maydonlari 454,7 ming gektarga kengaydi. (153-b) Barcha qiyinchiliklarga qaramasdan o`zbek dehqonlari frontni zarur mahsulotlar bilan ta`minlash uchun fidokorona mehnat qildi. Bu fashizm ustidan qozonilgan g`alabaga qo`shilgan munosib hissa edi. (10-s 2017 93-b)

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi gaplari mavjud: “bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o`z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar ucun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e`zozlash—odamiylikning eng oliy mezoni va tinchlik, omonlik kerak deb yashaydigan bag`rikeng va oliyjanob xalqimizga xos azali qadriyatdir. (10-s 2022 146-b) Xususan O`zbekiston aholisi front uchun davlatga 4 milliondan ziyod tona paxta, 1 mln 283 ming tonna don, 200 ming tonnage yaqin guruch, 108 ming tona kartoshka, 374 ming meva-sabzavot, 36 ming tonna quruq meva, 57 ming tonnadan ortiq uzum, 1,5 mln tonnadan ortiq go`sht, 300 mingga yaqin charm-teri mahsulotlarini yetkazib berdi. (10-s 2022 151-b)

O`zbekiston aholisi urush yillarida modofaa jamg`armasiga jami 649,9 mln rubl pul, 3 mlrd 669 mln 817 ming rubl obligasiyalar, 22 mln 374 ming rubl miqdoridagi qimmatbaho buyumlar, 55 kg dan ziyod qimmatbaho metallarni topshirdi, Ayollar avloddan avlodga meros bo`lib o`tib kelayotgan zargarlik buyumlarini ham berishdi. Mazkur mablag`larning bir qismiga zirhli poyezdlar, samolyotlar, tanklar qurilib frontga yuborildi. (10-s 2022 148-b)

Urush davrida respublikada og'ir iqtisodiy sharoit hukm surgan bo'lsa-da, xalq birligi va vatanparvarlik tuyg'usi yanada mustahkamlandi. Umuman olganda, Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston xalqining irodasini sinovdan o'tkazdi, xalqning mardligi, sabr-toqati va bir-biriga yordam berish fazilatlarini namoyon etdi. Shu bilan birga urush insoniyat tarixidagi eng og'ir fojialardan biri bo'lib, O'zbekiston aholisi ham bu fojيانing og'ir oqibatlarini chuqur his qilgan.

V “Bashariyat tarixdagi neng daxshatli qig'in bo'lgan Ikkinchi jahon urushi dunyo xalqlari, jumladan, el-yurtimiz boshiga slogan og'ir musibatlar, mislsiz kulfat va yo'qotishlar hech qachon unutilmaydi. Bu—zamon va makon chegarasini bilmaydigan chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir. Bunday muazzam, shonli bzafarga munosib hissa qo'ssgan xalqimzi bilan har qancha faxrlansak arziydi”, deb takidlab o'tadi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Jo'rayev, Q.Usmonov, A.Nurqulov, G.Jo'rayeva. Toshkent-2015 Tarixdan hikoyalar 5-sinf 144-bet.
2. Q.Usmonov, M.Sodiqov. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryoti Toshkent-2010 O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 138-153-bet
3. Qahramon rajabov akbar zamonov Toshkent-2017 O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 92-93-138-139-bet
4. R.Rajabova, R.Karimov, K.Oqilov, A.Ibragimova, I.Alimov, F.Isoqov. Toshkent “O'qituvchi” 1994 O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 242-bet
5. S.Tillaboyev. D.Kenjayeov, N.Mustafoyeova, A.Zamonov va boshqalar Toshkent-2022 o'zbekiston tarixi 10-sinf 146-148-149-151-153-betlar
6. I.Karimov. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. T.3 t.: o'zbekiston 1996. 80-bet

7.“Ikkinchi jahon urushi el-yurtimiz boshiga slogan o`g`ir musibatlar hech qachon unutilmaydi”- Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xotira va Qadrlash kunida so`zlagan nutqidan parcha 2025-yil,8-may.

A

8.Q.Usmonov, M.Sodiqov. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryoti Toshkent-2010 O`zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 138-153-bet

9.Qahramon rajabov akbar zamonov Toshkent-2017 O`zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 92-93-138-139-bet

10.R.Rajabova,R.Karimov, K.Oqilov, A.Ibragimova, I.Alimov, F.Isoqov. Toshkent “O`qituvchi” 1994 O`zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 242-bet